

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIY OT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:

№ 19

2022 yil 25 05

"TASDIQLAYMAN"

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Bozorov O.N.

2022 yil

"YER TUZISHNI LOYIHALASH" FANINING

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	- Qishloq va suv xo'jaligi
Ta'lim sohasi:	410 000	- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishi:	5410700	- Yer kadastr va yerdan foydalanish

Jami o'quv soati 7-semestr uchun:		274 soat
Ma'ruza		54 soat
Amaliy mashg'ulotlar (E-114-19, E-115-19)		54 soat
Mustaqil ta'lim soati		82 soat
Kurs ishi (loyiha)		84 soat

Qarshi-2022 y

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi: № _____ 2022 yil “__” ____	“TASDIQLAYMAN” O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor _____ Bozorov O.N. “__” _____ 2022 yil
---	---

“YER TUZISHNI LOYIHALASH” FANINING

ISHCHI O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	400000	-	Qishloq va suv xo‘jaligi
Ta’lim sohasi:	410 000	-	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi
Ta’lim yo‘nalishi:	5410700	-	Yer kadastri va yerdan foydalanish

Jami o‘quv soati 7-semestr uchun:		274 soat
Ma’ruza		54 soat
Amaliy mashg‘ulotlar (E-114-19, E-115-19)		54 soat
Mustaqil ta’lim soati		82 soat
Kurs ishi (loyiha)		84 soat

Qarshi-2022 y

Fanning ishchi o'quv dasturi "TIQXMMI" ning 2020 yil "30" "_04_" dagi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2020 yil "30" iyul kuni ro'yxatga olingan № BD-5410700-3.03. fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

K.N.Xujakeldiyev - QMII "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish", kafedrası

dotsenti.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Geodeziya, kadastr va yerdan foydalanish" kafedrası yig'ilishida (bayon №____, _____2022y.), Geologiya va konchilik ishi fakulteti Uslubiy komissiyasida (bayon №____, _____2022y.) va institut Uslubiy kengashida (bayon №____, _____2022y.) muhokama etilgan va o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

QMII O'quv- uslubiy boshqarma

boshlig'i: _____ dots. Sh.Turdiyev

Geologiya va konchilik ishi

fakulteti uslubiy komissiyasi raisi: _____ kat.o'qit.M.J.G'ofirov

"Geodeziya, kadastr va yerdan

foydalanish" kafedrası mudiri: _____ dots. G'.N.Aliqulov

Kirish

Ushbu dastur yer tuzish nazariyasini, uslubiyatlarini va iqtisodiy-ijtimoiy negizini o'rganadigan asosiy fan yer tuzishni loyihalash fanidir. Yer tuzishni loyihalash fani tabiat va jamiyat rivojlanish qonunlari asosida rivojlanib, fan va texnika yutuqlari, doimiy o'sib boruvchi ishlab chiqarish talablari va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasiga mos tushadigan, ularning to'xtovsiz rivojlanib borishiga hamda tabiatni muhofaza qilishga zamin yaratadigan qilib yer maydonlarini tashkil qilish uchun nazariy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi, hamda yerdan foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini qamrab oladi.

Fanning maqsad va vazifalari

“Yer tuzishni loyihalash” fanini o'qitishning asosiy maqsadi – talabalarda yer tuzishni loyihalashning rivojlanish qonuniyatlarini va tamoyillarini, loyihalashning ilmiy asoslari, usullari va texnologiyasini, mamlakatimiz yer tuzish tizimini, yer tuzish turlarini ular bilan bog'liq yer tuzish loyihalarini ishlash va ularni iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik asoslash uslubiyatlariga mos bilim va malaka shakllantirishdan iborat.

“Yer tuzishni loyihalash” fanining asosiy vazifasi - yer tuzishni loyihalashning uslubiy masalalarini, yer tuzishni loyihalash texnologiyasi va usullarini, xo'jaliklararo yer tuzish tushunchasi, vazifalari va mazmunini, qishloq xo'jaligi yer egaliklari va yerdan foydalanishlarni tashkil etish va tartibga solish, noqishloq xo'jalik maqsadlariga mo'ljallangan yerdan foydalanishlarni tashkil etish, yerlarni va atrof muhitni muhofaza qilish, aholi yashash chegaralarini belgilash va o'zgartirish, xo'jaliklararo yer tuzishning maxsus masalalari, xo'jalikda ichki yer tuzishning vazifalari va mazmunini, fermer xo'jaliklarida ichki yer tuzishning xususiyatlarini o'rgatishdan iboratdir.

Fan bo'yicha talabalarining tasavvur, bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

- “Yer tuzishni loyihalash” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida talaba:
- xo'jaliklararo yer tuzish: xo'jaliklararo yer tuzishning tushunchasi, vazifalari va mazmuni, jarayoni va o'tkazish asoslari;
 - qishloq xo'jalik yerdan foydalanuvchilari va yer egaliklarini tashkil etish va tartibga solish;
 - noqishloq xo'jalik maqsadidagi yerdan foydalanishlarni, yerlarni va atrof muhitni muhofaza qilishni tashkil etish;
 - aholi punktlari chegaralarini o'rnatish va o'zgartirish, ularning yerlaridan foydalanish va tashkil etish;
 - ma'muriy hududiy birliklar chegaralarini joyda o'rnatish; xo'jaliklararo yer tuzishning maxsus masalalari;
 - loyiha hujjatlarini tayyorlash va topshirish; loyihani amalga oshirish haqida tasavvurga ega bo'lishi;

-xo‘jaliklararo yer tuzish: xo‘jaliklararo yer tuzishning tushunchasi, vazifalari va mazmuni, jarayoni va o‘tkazish asoslarini;

-noqishloq xo‘jalik maqsadidagi yerdan foydalanishlarni, yerlarni va atrof muhitni muhofaza qilishni tashkil etishni;

-aholi punktlari chegaralarini o‘rnatish va o‘zgartirish, ularning yerlaridan foydalanish va tashkil etishni;

-ma‘muriy hududiy birliklar chegaralarini joyda o‘rnatish, xo‘jaliklararo yer tuzishning maxsus masalalarini;

-loyiha hujjatlarini tayyorlash va topshirish, loyihani amalga oshirishni bilishi va ulardan foydalana olishi

-qishloq xo‘jalik yerdan foydalanuvchilari va yer egaliklarini tashkil etish va tartibga solish;

-noqishloq xo‘jalik maqsadidagi yerdan foydalanishlarni, yerlarni va atrof muhitni muhofaza qilishni tashkil etish;

-aholi punktlari chegaralarini o‘rnatish va o‘zgartirish, ularning yerlaridan foydalanish va tashkil etish;

-xo‘jalikda ichki yer tuzishning vazifalari va mazmuni, tayyorgarlik va izlanish ishlari, ichki xo‘jalik magistral yo‘llari, ishlab chiqarish va xo‘jalik markazlarini joylashtirish;

-almashlab ekish tizimini va yer turlarini hududiy tashkil etish;

-almashlab ekish, ko‘p yillik daraxtlar, yem-xashak yer turlari hududini tashkil etish;

-loyiha hujjatlarini tayyorlash va topshirish, mualliflik nazoratini olib borish loyihani amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

Yer tuzishni loyihalash fani ixtisoslik fani hisoblanib 5, 6 va 7–8-semestrlarda o‘qitiladi.

Bu dasturni amalga oshirishda o‘quv rejasida rejalashtirilgan matematik va tabiiy - ilmiy (tuproqshunoslik va dehqonchilik, ekologiya), umumkasbiy (yer tuzishning ilmiy asoslari, geodeziya, yer tuzishda geodezik ishlar, meliorasiya va yerlarni rekultivasiyalash, o‘rmon tuzish asoslari va ixota daraxtlari polosalarini loyihalash, yer huquqi, yer tuzishni loyihalashning avtomatlashgan tizimlari), ixtisoslik (yer kadastri) fanlaridan yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlik talab etiladi

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Respublikamizda qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqur-lashtirish va agrar sohani rivojlantirishning yo‘nalishlaridan biri yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etishni mukammallashtirish hisoblanadi. Yer tuzishni loyihalash fani tabiat va jamiyat rivojlanish qonunlari asosida rivojlanib, fan va texnika yutuqlari, doimiy o‘sib boruvchi ishlab chiqarish talablari va ijtimoiy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasiga mos tushadigan, ularning to‘xtovsiz rivojlanib borishiga

hamda tabiatni muhofaza qilishga zamin yaratadigan qilib yer maydonlarini tashkil qilish uchun nazariy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi. Yer tuzishni loyihalash fani ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Yer tuzish va yer kadastr sohasida bajariladigan ishlarning asosiy nazariy qismini mana shu fan o'rgatadi.

Shuning uchun ushbu fan asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, ishlab chiqarish tizimining ajralmas bo'g'inidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarining "Yer tuzishni loyihalash" fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion – pedagogik texnologiyalarni tadbqiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, texnologiyalar majmuasi, tarqatma materiallar, elektron materiallar hamda ishlab chiqarishda mavjud holatlarning rasmlaridan foydalaniladi.

"Yer tuzishni loyihalash" fanini o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan, "Excel" elektron jadvallar va "Panorama", ArGIS, MapINFO dasturlaridan foydalaniladi.

Ma'ruza, amaliy dasturlarida mos ravishda ilg'or pedagogik texnologiyalaridan foydalaniladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimli yondoshuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'langanligi, yaxlitligi.

Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o'quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta'lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo'llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta'minlanadi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llash.

O'qitishning usullari va texnikasi. Ma'ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta'lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o'zaro o'rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy shakllari (darslik, ma'ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotida ham, butun kurs davomida ham o'qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Yer tuzishni loyihalash” fanidan mashg'ulotlarning mavzular va soatlar bo'yicha taqsimlanishi:

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

1- jadval

T/r	Ma'ruza mavzulari	Soat
7 semestr		
Yer tuzish (XIYET)		
1	Xo'jalikda ichki yer tuzish haqida tushuncha, uning maqsadi, vazifalari va mazmuni	2
2	Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini bajarish tartibi va usullari.	2
3	Xo'jalikda ichki yer tuzishdatayyorgarlikning vazifasi va mazmuni. Kameral tayyorgarlik	4
4	Dala yer tuzish izlanishlari. Loyihani bajarish uchun vazifa ishlab chiqish	2
5	Ishlab chiqarish bo'linmalari va xo'jalik markazlarini joylashtirishning vazifasi, mazmuni .Xo'jalik ishlab chiqarish bo'linmalarining turlari, soni va o'lchamini belgilash	4
6	Qishloq aholi tizimi xo'jalik markazlarini joylashtirish. Ishlab chiqarish markazlarini joylashtirish.	2
7	Ishlab chiqarish bo'limlarini va xo'jalik markazlarini joylashtirish . Ishlab chiqarish bo'limlari yer maydonlarini joylashtirish. Loyihaviy yechimlarni iqtisodiy asoslash.	4
8	Xo'jalikda ichki asosiy (magistral) yo'llarni, injenerlik inshootlarini va obyektlarini joylashtirish. Loyihalashning vazifalari va mazmuni. Xo'jalikdagi ichki magistral yo'llarni joylashtirish.	2
9	Xo'jalikda ichki asosiy (magistral) yo'llarni joylashtirish loyihasini ishlash tartibi meliorasiya va suv xo'jaligi qurilish obyektlarini joylashtirish.	2
10	Yer turlarini tashkil etishning tushunchasi, vazifasi va mazmuni.	4
11	Loyihalanayotgan yer turlarini tashkil etishni asoslash	2
12	Yer turlarini va almashlab ekishni tashkil etish	4
13	Yer turlarini va almashlab ekishni tashkil etish.Maxsus almashlab ekishning turlari. Almashlab ekishlarni joylashtirish	2

14	Yer turlarini va almashlab ekishni tashkil etish	2
15	Almashlab ekishlar hududini tashkil etish.	4
16	Chiziqli elementlarni joylashtirish	2
17	Daraxtzorlar hududlarini tashkil etishning vazifasi va mazmuni	4
18	Daraxtzorlar xududini tashkil etish	2
19	Daratzorlar xududini tashkil qilish. Uzumzorlar hududini tashkil etish	2
20	Daratzorlar xududini tashkil qilish. Rezavor bog'lar ko'chatzorlar hududini tashkil etish	2
jami		54

Ma'ruza mashg'ulotlari multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlar oqimi uchun o'tkaziladi

2. Amaliy mashg'ulotlar

2 jadval

T/r	Amaliy mashg'ulotlar mavzulari	Soat
7-semestr		
Yer tuzishni loyihalash (XIYET)		
1	Loyihani bajarish uchun plan kartografik materiallarni olish	4
2	Loyihani bajarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarni, materiallarni tayyorlash	4
3	Xo'jalik ishlab chiqarish bo'linmalarining turlari, soni va maydonlarini belgilash	2
4	Ishlab chiqarish bo'linmalarini xududiy joylashtirish	2
5	Ishlab chiqarish bo'linmalarini xududiy joylashtirish	2
6	Xo'jalik markazlari maydonlarini hisoblash va xo'jalik markazlarini joylashtirish	2
7	Xo'jalik markazlari maydonlarini hisoblash va xo'jalik markazlarini joylashtirish	2
8	Asosiy yo'llarni joylashtirish loyihasini tuzish va joylashtirishni iqtisodiy asoslash	2
9	Asosiy yo'llarni joylashtirish loyihasini tuzish va joylashtirishni iqtisodiy asoslash	2
10	Yer turlarini tarkibi, nisbati va maydonlarini belgilash va joylashtirish	4
11	Yer turlarini tarkibi, nisbati va maydonlarini belgilash va joylashtirish	2
12	Asosiy almashlab ekishni tashkil etish	2
13	Asosiy almashlab ekishni tashkil etish	4
14	Dalachilik almashlab ekishini tashkil etish loyihsini iqtisodiy asoslash	2

15	Almashlab ekish dalalarini joylashtirish. Sug'orish (ishchi) uchastkalarini. Dala shiyponlari joylashtirish	4
16	Sug'orish shaxobchalari,dala yo'llari va ihota daraxtlarini joylashtirish. Almashlab ekishlar hududini tashkil etish loyihasini iqtisodiy asoslash.	4
17	Bog'zorlar hududini tashkil etish	2
18	Bog'zorlar hududini tashkil etish	2
19	Uzumzorlar hududini tashkil etish.	4
20	Rezavorzorlar va qulubnay almashlab ekishlari hududini tashkil etish.	2
jami		54

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim.

5.Mustaqil ta'lim

3 jadval

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
7-semestr		
1	Xo'jalikda ichki yer tuzishning vazifalari va mazmuni	10
2	Tayyorgarlik va izlanish ishlari	10
3	Ishlab chiqarish bo'limlarini va xo'jalik markazlarini joylashtirish	10
4	Xo'jalikda ichki asosiy (magistral) yo'llarni, injenerlik inshootlarini va obyektlarini joylashtirish	10
5	Yer turlarini va almashlab ekishni tashkil etish	10
6	Almashlab ekishlar hududini tashkil etish	10
7	Sug'orish shaxobchalari ,dala yo'llari va ihota daraxtlarini joylashtirish.	6
8	Almashlab ekishilar xududini tashkil etish loyihasini iqtisodiy asoslash.	6
9	Daraxtzorlar hududlarini tashkil etish	10
Jami		82

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlanadi va uni taqdimoti tashkil etiladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Fan bo'yicha kurs loyihasi. Kurs loyihasi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli (variantlangan) topshiriq shaklida 7-semestrda beriladi va qobul qilinadi. Kurs loyihasining hajmi 40 betdan kam bo'lmagan, A4 formatdagi varaqlarda yozilishi va tikilib rasmiylashtirilishi lozim. Kurs loyihasini bajarish tartibi kafedraning uslubiy qo'llanmasida keltirilgan.

Kurs loyihasini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Kurs loyihasining maqsadi talabalarni mustaqil ishlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan nazariy bilimlarini qo'llashda amaliy ko'nikmalar hosil qilish, bevosita ishlab chiqarishdagi real sharoitlarga mos texnik yechimlar qabul qilish va zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishdir.

Kurs loyihasi mavzulari bevosita ishlab chiqarish korxonalari texnologik jarayonlariga bog'liq holda, aniq bir ixtisoslik yo'nalishidagi tuman, massiv, fermer xo'jaliklari yer maydonlari uchun belgilanadi. Kurs loyihasining mavzulari umumiy talabalar sonidan 20-30% ko'proq oldindan tayyorlanadi har bir talabaga shaxsiy topshiriq beriladi.

Kurs loyihasi obyekti sifatida qishloq xo'jalik korxonasi xizmat qiladi. Aniq bir ixtisoslik yo'nalishidagi massiv tanlanadi, loyiha ishlanadi, hisoblanadi va texnik - iqtisodiy baholanadi. Kurs loyihasining hisob - grafik ishlari zamonaviy kompyuter dasturlarida bajariladi. Kurs loyihasi grafik qismi A1 formatdagi chizmadan iborat bo'lib, qishloq xo'jalik korxonasi hududini tashkil etish loyihasi va ishchi chizmalardan tashkil topadi.

Yer tuzishni loyihalash fanini o'rganish jarayonida bitta to'liq kurs loyihasi bajariladi.

Xo'jalikda ichki yer tuzish – qishloq xo'jalik korxonalari hududlarini tashkil etish.

1. Massivda ichki yer tuzishda tayyorgarlik ishlari.
2. Massivda ichki yo'llarni, sug'orish tarmog'i va boshqa injenerlik inshootlarini joylashtirish.
3. Yer turlarini tashkil qilish.
4. Almashlab ekish tizimini tashkil etish.
5. Almashlab ekish massivi hududni tashkil etish.
6. Bog'lar va uzumzorlar maydonini hududiy tashkil etish.
7. Yaylov va pichanzorlar maydonini hududiy tashkil etish.
8. Loyihani muhokama qilish va tasdiqlash. Loyihani joyga ko'chirish va rasmiylashtirish.

Fan bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish

Talabalar bilimini nazorat qilish Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi tomonidan tavsiya etilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida"gi Nizom (Nizom O'z.R. OO'MTVning 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug'i bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. O'z.R. OO'MTVning 2010 yil 25 avgustdagi 333-sonli buyrug'i bilan Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro'yxatidan qayta o'tkazilgan.) asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq fan bo'yicha o'quv semestri davomida uch turdagi, ya'ni joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar o'tkaziladi.

Joriy nazorat - fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim topshiriqlari buyicha. og'zaki so'rov, test o'tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkaziladi.

Oraliq nazorat – semestr davomida modulli tizim asosida o'quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin, talabaning bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baholash maqsadida yozma, og'zaki, test shaklida o'tkaziladi. Oraliq nazorat bir semestrda ikki (yoki bir) marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) hamda soni o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi

Yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi. Ilmiy Kengash qarori bilan yakuniy nazorat og'zaki, test va boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Yer tuzishni loyihalash" fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi. YAN-30 ball, qolgan 70 ball esa JN-36 ball va ON-34 ball qilib taqsimlanadi.

1-jadval

t/r	Fanning nomi	Maksimal ball	Minimal ball	Nazorat turlari bo'yicha		
				JN	ON	YAN
1	Yer tuzishni loyihalash	100	55	36	34	30

2. Har nazorat turlari bo'yicha baholarni belgilash 2-jadvalda ko'rsatilgandek taqsimot qilinsin.

2-jadval

t/r	Fanning nomi	Semestr	Maksimal ball	Baho va ballar			
				qoniqarsiz	qoniqarli	yaxshi	a'lo
1	Yer tuzishni loyihalash	7	100	0-54	55-70	71-85	86-100

a) 86-100 ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib o'tish; tasavvurga ega bo'lish.

b) 71-85 ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarini amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib o'tish; tasavvurga ega bo'lish.

v) 55-70 ball uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish; bilish, aytib o'tish; tasavvurga ega bo'lish.

3. Fanlardan reyting ishlanmasi va baholash mezonlari qo'yidagicha qabul qilinsin

3 – jadval

№	Nazorat turi	Ball	Saralash ball
I.	Joriy nazorat – JN	36 ball	
	JN-1		
1.	Fan bo'yicha talabani bilim: (Amaliy yoki seminar mashg'ulotlarini bajarish va topshirish). Talaba mustaqil ishini bajarish va topshirish (mustaqil ish shakllari bo'yicha)	18 ball	10
	JN-2		
2.	Fan bo'yicha talabani bilim: (Amaliy yoki seminar mashg'ulotlarini bajarish va topshirish). Talaba mustaqil ishini bajarish va topshirish (mustaqil ish shakllari bo'yicha)	18 ball	10
II.	Oraliq nazorat – ON	34 ball	19
	ON-1		
3.	Fan bo'yicha talabani bilim (yozma ish yoki test). Talaba mustaqil ishini bajarish va topshirish (mustaqil ish shakllari bo'yicha)	17 ball	9
	ON-2		
4.	Fan bo'yicha talabani bilim (yozma ish yoki test). Talaba mustaqil ishini bajarish va topshirish (mustaqil ish shakllari bo'yicha)	17 ball	10
Joriy nazorat + Oraliq nazorat (JN + ON)		70 ball	39
III.	Yakuniy nazorat- YAN	30 ball	0-30
5.	Yakuniy nazorat yozma ish yoki test uslublarida	30 ball	0-30

	o'tkaziladi		
	Jami ball	100	55

***Izoh:** Har bir nazorat turida talabanning fan bo'yicha to'plagan bali bilim va mustaqil ish bo'yicha saralash baliga (har biri bo'yicha) teng yoki undan yuqori bo'lganida fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

4. Talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida nazorat turlari quyidagi tartiblarda o'tkazilsin:

4.1. JN-1 va JN-2 larning har biri bo'yicha:

- amaliy mashg'ulotda qatnashib berilgan topshiriqlarni to'la, sifatli bajargan va savollarga to'liq javob bergan talabaga 10 dan 18 balgacha beriladi, to'liq bajarmagan talabaga bajarilgan ish hajmiga va sifatiga qarab 0 dan 10 ballgacha beriladi.

4.1 Joriy nazorat uchun jami 36 ball, shundan

JN-1 18 ball va JN-2 18 ballar uchun ajratilgan bo'lib, quyidagicha taqsimlanadi:

1 dars	2 dars	3 dars	4 dars	5 dars	6 dars	7 dars	8 dars	9 dars	10 dars	11 dars	12 dars	13 dars
-	1	1	1	1	1	1	2	2	2	2	2	2
-	0-1	0-2	0-3	0-4	0-5	0-6	0-8	0-10	0-12	0-14	0-16	0-18
JN-1												
1 dars	2 dars	3 dars	4 dars	5 dars	6 dars	7 dars	8 dars	9 dars	10 dars	11 dars	12 dars	13 dars
-	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	2
-	0-1	0-2	0-3	0-4	0-5	0-6	0-7	0-8	0-10	0-12	0-14	0-18
JN-2												

Joriy baholash amaliy mashg'ulotda qatnashib berilgan topshiriq-larni to'la, sifatli bajargan va savollarga to'liq javob bergan talabaga:

- agar topshiriqlarni to'liq bajarib, savollarga to'liq va aniq javob bersa hamda ijodiy fikrlari bo'lsa – **2-3 ball**;

- agar topshiriqlarni bajarib, savolning asosiy faktlar bilan to'g'ri bayon etilsa – **1-2 ball**;

- agar topshiriqlarni bajarib savolga umumiy tarzda javob berilsa, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa – **0-1 ball**;

ON-1maksimal ball 17 bo'lib, ikki qismdan iborat:

ON-1 bo'yicha:

Oraliq nazorat yozma ish shaklida o'tkaziladi. **12 ball yozma ishga, 5 ball**

mustaqil ishga beriladi.

Oraliq baholash yozma ish tarzida o'tkazilganda, talabadan uchta savolga javob berishi so'raladi. Har bir savol 4 balldan baholanadi.

- agar savol mohiyati to'la ochib berilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa **3-4 ball**;

- savolning mohiyati umumiy ochilgan, asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa – **2-3 ball**;

- savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa – **1-2 ball**;

- savolga javob berishga harakat qilingan, ammo chalkashliklar bo'lsa – **1 ball** beriladi.

Diqqat: ON-1 ajratilgan **17** balldansaralash balini (55%, ya'ni, 10 ball) yoki undan yuqorisini to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

ON-2maksimal ball 17 bo'lib, ON-1 uchun belgilangan mezonlarga to'liq rioya etiladi.

Mustaqil ish 5 ball bilan baholanadi.

Talabaning mustaqil ishi (TMI) mustaqil ish shakllari bo'yicha bajariladi.

Masalan:

Talabaning mustaqil ishi – referat shaklida bo'lsa, berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlanadi:

- referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo'lsa – **4-5 ball**;

- mavzu mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor – **3-4 ball**;

- mavzu mohiyati yoritilgan, ammo arzimlas kamchiliklari bor bo'lsa – **2-3 ball** beriladi;

- mavzu mohiyati yoritilgan, ammo ayrim kamchiliklari bor bo'lsa – **1-2 ballgacha** beriladi.

4.1. JN-1 bo'yicha:

- amaliy mashg'ulotda qatnashib berilgan topshiriqlarni to'la, sifatli bajargan va savollarga to'liq javob bergan talabaga 20 dan 36 ballgacha beriladi, to'liq bajarmagan talabaga bajarilgan ish hajmiga va sifatiga qarab 0 dan 19 ballgacha beriladi.

4.1 Joriy nazorat uchun jami 36 ball bo'lib quyidagicha taqsimlanadi:

1 dars	2 dars	3 dars	4 dars	5 dars	6 dars	7 dars	8 dars	9 dars	10 dars
-	4	4	4	4	5	5	5	5	-
	0-4	0-8	0-12	0-16	0-21	0-26	0-31	0-36	-
JN-1									

Joriy baholash amaliy mashg'ulotda qatnashib berilgan topshiriqlarni to'la, sifatli bajargan va savollarga to'liq javob bergan talabaga:

- agar topshiriqlarni to'liq bajarib, savollarga to'liq va aniq javob bersa hamda ijodiy fikrlari bo'lsa – **4-5 ball**;

- agar topshiriqlarni bajarib, savolning asosiy faktlar bilan to'g'ri bayon etilsa – **2-3 ball**;

- agar topshiriqlarni bajarib savolga umumiy tarzda javob berilsa, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa – **0-1 ball**;

ON-1maksimal ball 34 bo'lib quyidagicha taqsimlanadi:

ON-1 bo'yicha:

Oraliq nazorat yozma ish shaklida o'tkaziladi. **24 ball** yozma ishga, **10 ball** mustaqil ishga beriladi.

Oraliq baholash yozma ish tarzida o'tkazilganda, talabadan to'rtta savolga javob berishi so'raladi. Har bir savol 6 balldan baholanadi.

- agar savol mohiyati to'la ochib berilgan bo'lsa, javoblari to'liq va aniq hamda ijodiy fikrlari bo'lsa **5-6 ball**;

- savolning mohiyati umumiy ochilgan, asosiy faktlar to'g'ri bayon etilgan bo'lsa – **3-4 ball**;

- savolga umumiy tarzda javob berilgan, ammo ayrim kamchiliklari bo'lsa – **1-2 ball**;

- savolga javob berishga harakat qilingan, ammo chalkashliklar bo'lsa – **1 ball** beriladi.

Diqqat: ON-1 ajratilgan **34** balldansaralash balini (55%, ya'ni, 20 ball) yoki undan yuqorisini to'plagan talaba fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.

Mustakil ish 10 ball bilan baholanadi.

Talabaning mustaqil ishi (TMI) mustaqil ish shakllari bo'yicha bajariladi.

Masalan:

Talabaning mustaqil ishi – referat shaklida bo'lsa, berilgan mavzu bo'yicha referat tayyorlanadi:

- referatda mavzu to'liq ochilgan, to'g'ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo'lsa – **9-10 ball**;

- mavzu mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor – **7-8 ball**;

- mavzu mohiyati yoritilgan, ammo arziyas kamchiliklari bor bo'lsa – **5-6 ball** beriladi;

- mavzu mohiyati yoritilgan, ammo ayrim kamchiliklari bor bo'lsa – **1-4 ballgacha** beriladi.

4.3. Yakuniy nazorat bo'yicha:

Yakuniy baholash test yoki yozma ish uslubida o'tkaziladi. Jami test savollar bazasi 100 tadan iborat bo'lib kompyuterga joylashtirilsin. EHM dasturi asosida har bir talabaga 30 ta test berilishi ta'minlansin va har bir to'g'ri javobga 1 ballik mezon asosida baholansin. Yozma ish o'tkazilgan holda 3ta savoldan iborat variantlar tuziladi. Har bir savol 10 balldan baholanadi. Yakuniy baholash natijalari 1-ilovada keltirilgan shakl bo'yicha rasmiylashtirilsin.

5. Semestr yakunida fan bo'yicha joriy, oraliq nazorat turlarining har biri bo'yicha yoki yakuniy nazoratdan so'ng, saralash balidan kam ball to'plagan talabaning o'zlashtirishi qoniqarsiz (akademik qarzdor) hisoblansin.

6. Talabalar mustaqil ishlarini bajarish yuzasidan tegishli yo'llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida, har bir fan bo'yicha haftasiga 4 soat hajmida konsultasiyalar jadvallari ishlab chiqilsin.

7. Darsni borishi va nazorat turlarini natijalari maxsus jurnallarda o'z vaqtida qayd qilinib borilishi har bir maruzachi va amaliy mashg'ulot o'qituvchisi zimmasiga yuklatilsin.

8. Nazorat turlarining natijalari dekanatga berilishi uchun maxsus qaydnomalarda rasmiylashtirilsin.

9. Olingan nazorat ishlari natijasi keyingi darsgacha (bir haftadan kechiktirmasdan talabalarga e'lon qilinsin (Ma'sul: fan o'qituvchilari).

10. Nazorat turlarining natijalari va mustaqil ish bo'yicha referatlar o'quv yili davomida kafedrada saqlansin (Mas'ul: kabinet mudiri).

11. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash balidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga, qayta topshirish uchun navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat berilsin.

12. JN, ON va YAN sinovini o'tkazilishi jadvali bilan talabalar semestrning boshida (dastlabki ma'ruza darslarida) tanishtirilsin.

Agar YAN test ko'rinishida olinsa, har bir variantga 30 tadan test savollari kiritilib, har bir to'g'ri javob uchun 1 ball, noto'g'ri javob uchun 0 ball berilishi belgilangan hamda test savollari asosida fan o'qituvchisi bilan og'zaki suhbatdan o'tishi shartligi tasdiqlangan.

Talabaning fan bo'yicha bir semestrda reytingi quyidagicha aniqlanadi.

$$R_t = V \times O' / 100;$$

bu erda: V – semestrda fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklamasi (soatlarda);

O' – fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi (ballarda).

Masalan: Fanga ajratilgan umumiy soat V=104, talabaning to'plagan bali O'=72 bo'lsa, uning reytingi $R_t = 104 \times 72 / 100 = 74,88$ bo'ladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. Avezbayev S , Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. Darslik. T.: «Yangi asr avlodi», 2004. – 786 b.

2. Avezbaev S., Volkov S.N. Yer tuzishni loyihalash. Darslik. T.: “Faylasuflar milliy jamiyati”, 2007. – 470 b.

3. S.Avezbaev, T.Karabayeva. Yer tuzish.Darslik. T.:TDAU, 2005. – 305 b.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1.Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Toshkent,O‘zbekiston, 2016.-56 b.

2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent,O‘zbekiston, 2017.- 104b.

3. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini taminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligini garovi. Toshkent,O‘zbekiston, 2017.-48b.

4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

5. S.Avezbaev, T.Karabayeva.Yertuzish.Darslik. T.:TDAU, 2005. – 305 b.

6. G‘ofirov A. Yer tuzishni loyihalash fanidan mustaqil ishlarni bajarish bo‘yicha metodik ko‘rsatma. T.:TIMI, 2015. 46 b.

7. Avezbayev S., G‘ofirov A. Yer tuzishni loyihalash fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha metodik ko‘rsatma. T.: TIMI, 2015. 86 b.

TIMI,2013-54b

Internet saytlar:

8 .www.ziynet.uz;

9 .www.lex.uz;

10.www.bilim.uz;

11.www.gov.uz.

12. [http: //yerish.net](http://yerish.net).